

Korea Yangi Yil bayramida maxsus karantin choralar(20-yanvar (payshanba) ~ 2-fevral (chorshanba), 2 hafta)

“Iltimos, ushbu Yangi yil bayramida o'z shahringizga sayohat qilishdan yoki qarindoshlaringizni ziyorat qilishdan saqlaning.”

“Agar tashrif buyurish zarur bo'lsa, asosiy karantin qoidalariga rioya qilgan holda uchinchi emlashdan keyin, kichik guruhda tashrif buyurishni tavsiya qilamiz.”

① O'z shahringizga sayohat qilishdan oldin emlash

- **(Tug'ilgan shaharga tashrif)** O'z shahringizga tashrif buyurish yoki sayohat qilishga majbur holatda bo'lsangiz, emlanganingizdan va uchinchi emlashni tugatganingizdan so'ng tashrif buyuring, kichik guruhlarga bo'lingan holda tashrif buyuring.
 - Xususan, keksa ota-onalar emlanmagan bo'lsa yoki uchinchi emlashni tugatmagan bo'lsa, tashrif buyurishdan bosh tortish qat'iy tavsiya etiladi.
- **(Uchrashuvlar va yig'ilishlar)** Qarindoshlar va tanishlar, shu jumladan emlanmaganlar bilan yig'ilishdan saqlaning

② Asosiy karantin qoidalariga rioya qilish

- **(Jo'nashdan oldin)** Δ 2 yoki uchinchi emlashni kamida 2 hafta oldin yakunlang, Δ diagnostik testdan o'ting, Δ covid-19 ning klinik belgilari (isitma, hid, ta'm sezmaslik, mushak og'rig'i va boshqalar) bo'lsa, tashrif va uchrashuvlarni bekor qiling yoki keyinga qoldiring. , Δ jamoat joylariga borishdan saqlaning
- **(Harakatlanayotganda)** Δ Iloji boricha shaxsiy transportdan foydalaning, Δ jamoat transportidan foydalanganda niqob taqing va ovqatlanmang, Δ transport yo'lovchilar dam olish joylarida vaqtingizni kamaytiring, Δ Odam gavjum joylarga bormang va hokazo.
- **(Tug'ilgan shahar)** Δ Dafn marosimida odamlar sonini minimallashtirib, navbatta turish odamlar sonini kamaytiring, Δ qisqa vaqt qoling, Δ keksalar va boshqalar bilan uchrashganda qat'iy niqob taqing, Δ qo'l yuvish va xonalarni vaqti-vaqti bilan xavo almashtirish(kuniga 3 martadan ortiq) kabi shaxsiy profilaktika choralariga diqqat bilan rioya qiling, Δ jamoat joylariga borishdan saqlaning
- **(Uyga qaytgandan keyin)** Δ Ma'lum vaqt davomida jamoat joylariga bormang, Δ uyda qoling va sog'lig'ingizni kuzatib boring, Δ kundalik hayotga qaytishdan oldin, faol ravishda PCR testidan o'ting va hokazo

< Ushbu tarjima Danuri Call Center 1577-1366 tomonidan amalga oshirildi >